

MARKETING

ILMIY, AMALIY VA OMMABOP JURNAL



I
BRENDING
N
O
V
MARKETING
T
BIZNES
I
Y
S
RAQAMLI MARKETING
V
D
ELEKTRON TIJORAT

№3-SON

2025-YIL, MART

9710 xalqaro daraja



№240874

ISSN: 3060-4621



Member of
Crossref

OPEN  ACCESS



JURNALNING MAQSADI

Tadbirkorlik-biznes faoliyatini tashkil etishning marketing asoslarini, yo'nalishlari, echimlari, vositalarini yaratish va rivojlantirish

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

TEL: (97) 783-84-64

VEB-SAYT

www.marketingjournal.uz

ELEKTRON POCHTA:

info@marketingjournal.uz

TELEGRAM BOT:

[@marketinjournalbot](https://t.me/marketinjournalbot)

TELEGRAM KANAL:

<https://t.me/tdiumarketingjournal>

MUASSIS

“Tadbirkor va ishbilarmon” MCHJ

JURNALNING ILMIYLIGI

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining **2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

INDEKSATSIYA



BOSH MUHARRIR

Xakimov Ziyodulla Axmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Yusupov Muxamadamin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor;

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori;

Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna, i.f.d., prof., TDIU Marketing kafedrasini mudiri;

Soliyev Axmadjon Soliyevich, i.f.d., NaMTI Marketing kafedrasini professori;

Ikramov Murad Akramovich, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich, i.f.d., prof., TDIU Iqtisodiy xavfsizlik kafedrasini mudiri, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi;

Zarova Elena Viktorovna, i.f.d., G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti professori, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi

Akramov Tohir Abdurahmonovich, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Ostonaqulova Gulsaraxon Muhammadyoqub qizi, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Samadov Asqarjon Mishomovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi, i.f.n., dots., TDIU Kengash kotibi;

Sobirov Azizbek Avazbekovich, PhD., TDIU Marketing kafedrasini dotsenti;

Sadikov Shoxrux Shuxratovich, PhD, dots., TIU Departament boshlig'i;

Musyeva Shoirazimovna, i.f.n., SamISI Marketing kafedrasini professori;

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li, PhD., TDIU Marketing kafedrasini dotsenti;

Djurabayev Otabek Djurabayevich, i.f.d., TDIU Innovatsion menejment kafedrasini dotsenti;

Karimova Shirin Zoxid qizi, PhD, TDIU Axborot texnologiyalari kafedrasini katta o'qituvchisi;

Usmonov Bunyod Aktam o'g'li, PhD, TDIU Moliyaviy tahlil kafedrasini v.b.dotsenti;

Dehqonov Burxon Rustamovich, PhD., TDIU Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi bosh mutaxassisi;

Turobova Hulkar Rustamovna, PhD., BuxDU, Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrasini dotsenti;

Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbaevich, DSc., Namangan muhandislik-qurilish instituti dotsenti;

Fayzullayev Javlonbek Sultonovich, DSc., TDIU, Yashil iqtisodiyot kafedrasini dotsenti;

Aliyev Yashnarjon Egamberdiyevich, DSc., TDIU, “Iqtisodiy va moliyaviy xavfsizlik” kafedrasini professori

Bobojonov Azizjon Babaxanovich, DSc, TDIU, “Raqamli iqtisodiyot” kafedrasini dotsenti

Allayarov Shamsiddin Amanullayevich, DSc, prof., TDIU, “Savdo ishi” kafedrasini mudiri

Jumaev Olimjon Sadulloevich, DSc, Raqobat siyosati va iste'molchilar huquqlari tadqiqotlari markazi direktori

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., Alfraganus universiteti “Menejment va marketing” kafedrasini mudiri

Kucharov Abrorjon Sobirjanovich, TDIU biznes boshqaruvi va logistika kafedrasini professori

Nazarova Ra'no Rustamovna, TDIU “Yashil” iqtisodiyot kafedrasini mudiri, Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Elektron nashr 670 sahifa. E'lon qilishga 2025-yil 28-martda ruxsat etildi

MUNDARIJA

OZIQ-OVQAT MAXSULOTLARI EKSPORTINI MARKETING STRATEGIYALARI ASOSIDA OSHIRISH YO‘LLARI	9
Yunusov Baxodir Marisovich	
ENHANCING EXPORT STRATEGIES FOR LIGHT INDUSTRY ENTERPRISES.....	22
Djurabaev Otabek Djurabayevich	
BALIQCILIKDA BIOLOGIK AKTIVLAR HISOBI VA ICHKI NAZORATINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	29
Dusmurotov Radjabbay Davlatbayevich, Aitimbetov Amirbek Qoishibekovich	
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ISHLAB CHIQRISH KORXONALARINING IQTISODIY RIVOJLANISHINING STATISTIK TAHLILI	37
Egamshukurov Zayniddin Sodikovich	
KORXONA MAHSULOTLARI ISTE‘MOLCHILARI MOTIVATSIYASIDA CHEKLI ALMASHTIRISH NORMASI MASALALARI	45
Jalilov Jamshid G‘anijonovich	
MINTAQADA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH HAMDA AHOLI TURMUSH FARAVONLIGINI OSHIRISHDA TURIZM INFRATUZILMASI ROLINI BAHOLASH.....	52
Jumaniyazova Sharifa Rashidovna	
DIGITAL MARKETING TOOLS AND BUSINESS DEVELOPMENT STRATEGIES	61
Khudoyarova Ziyoda Maratovna, Erkaboyeva Jasmina Safarali qizi	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING RIVOJLANISH NAZARIY ASOSLARI VA XORIJIY TAJRIBALARI.....	68
Mirazimova Zulfiya	
TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA IT TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING MOHIYATI.....	79
Musirmanov Shohboz Usmon o‘g‘li	
AHOLINING TURMUSH DARAJASI VA FARAVONLIGINING ASOSIY KO‘RSATKICHLARI VA DINAMIKASI	86
Muxamedova Muslima Maxmudovna	
DEVELOPMENT STRATEGIES FOR GLOBAL COMPANIES IN CURRENT CONDITIONS.....	96
Nasimov Bakhtiyor Vasiyevich	
QISHLOQ XO‘JALIGIDA PAXTA-TO‘QIMACHILIK KLASTERLARINI RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARI.....	104
Qurbonov Alisher Boboqulovich	

ZAMONAVIY RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH SHAROITIDA SUG'URTA KOMPANIYALARI UCHUN SAMARALI MARKETING STRATEGIYALARI	110
Rashidova Dildora Rasul qizi	
ELEKTRON TIJORATNI RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI ANIQLASH	116
Ravshanova Muhayyo Maxmanazarovna	
TELEKOMMUNIKATSION VOSITALAR ISHLAB CHIQUARISH KORXONALARINING INNOVASION FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	122
Shaislamova Muazzamxon Raximxodjaevna	
KICHIK BIZNES SUB'EKTLARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARI ASOSIDA OSHIRISH.....	130
Tursunxo'jayev Axrorxo'ja Jamoliddin o'g'li	
KO'P O'LCHOVLI KAMBAG'ALLIK INDEKSINI HISOBLASH BO'YICHA ALKIRE-FOSTER USULI VA TAVSIYALARI	140
Urazbayev Raxmatjon Otajanovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDAGI AHAMIYATI HAMDA EKOLOGIK, IJTIMOY VA BOSHQARUVNING INVESTITSİYALAR BILAN INTEGRATSIYASI	151
Amonov Mirzohid Tuymuratovich	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA AGROSANOAT MINTAQAVIY-IQTISODIY MAJMUASI RIVOJLANISH DINAMIKASINI BAHOLASH	161
Bekchanov Xalmurza Tursinbayevich	
“MAHALLA YETTILIGI” TIZIMIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING IJTIMOY AHAMIYATI	172
Imomov Jamshidxon Odilovich, Muzaffarova Dilbar Mamalatif qizi, Islomova Dilrabo Salomovna	
CHAKANA SAVDODA MARKETING VOSITALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH.....	194
Ismoilov Shohjahon O'tkir o'g'li	
RAQOBAT SHAROITIDA OLIY TA'LIM TASHKILOTLARINING BOSHQARUV MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	200
Nishanbaev Behzod Qahramaonjon o'g'li, Saidov Mash'al Samadovich	
INFLYATSIYA VA MAKROIQTISODIY BARQARORLIK O'RTASIDAGI MUVOZANAT: NAZARIY YONDASHUVLAR VA STRATEGIK YO'NALISHLAR	210
Baratov Diyorbek Fazliddin o'g'li	
SANOAT KORXONALARIDA RAQAMLI MARKETING FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING IJTIMOY-IQTISODIY MOHIYATI.....	218
Rajabova Mohichehra Abduxoligovna	

KICHIK BIZNESDA INNOVATSION MENEJMENT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI.....	227
Salayev Jasurbek Komilovich	
OLIY TA‘LIM TASHKILOTLARIDA SIFAT MENEJMENTI TAMOYILLARI ASOSIDA KADRLARLAR TAYYORLASH STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQISH.....	237
Ahmedova Nigora Temur qizi, Saidov Mash‘al Samadovich	
ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ РАЗВИТИЯ КЛАСТЕРИЗАЦИИ.....	248
Ахмедова Мадина Шухрат кизи	
МАРКЕТИНГОВЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ КАК ИНСТРУМЕНТ ФОРМИРОВАНИЯ КЛИЕНТСКОЙ СТРАТЕГИИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ	258
Кахрамонов Хуршиджон Шухрат угли, Маннабова Хулкар Фарход кизи	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МАРКЕТИНГОВЫХ СТРАТЕГИЙ В ПОВЫШЕНИИ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ.....	267
Рахимова Тамила Баходур кизи	
RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR QIMMATLI QOG‘OZLAR BOZORI RIVOJLANISHINING ASOSIY XUSUSIYATLARI	279
Ibodullaev Abror Axrorovich	
ЭКОНОМИЧЕСКАЯ БЕЗОПАСНОСТЬ В ФОРМИРОВАНИИ И РАЗВИТИИ КЛАСТЕРОВ ПРОИЗВОДСТВЕННОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ.....	285
Садриддинова Нигора Хусниддиновна	
KIMYO KORXONALARI TASHQI IQTISODIY FAOLIYATIDA MARKETING STRATEGIYALARINI TANLASHNING USLUBIY YONDASHUVLARINI ISHLAB CHIQISH.....	295
Akramov Bo‘ribek Faxriddin o‘g‘li	
PANDEMIYA VA INQIROZLARLARNING IJTIMOIIY SOHALARGA TA‘SIRINI BAXOLASH	304
Jumanov Eshmamat Turdiyevich, Ergashev Mirjon Yorqin o‘g‘li, Aslonov Muhammad Tosh o‘g‘li	
QASHQARYO VILOYATINING IQTISODIY O‘SISHINI TA‘MINLASHDA XORIJIY INVESTITSİYALARNI O‘ZLASHTIRISHNING IQTISODIY TAHLILI	311
Azimov Allaberdi O‘rinovich, Begaliyeva Madina Abdusamatovna	
TIJORAT BANKLARI MUAMMOLI KREDITLARNI KAMAYTIRISH MEXANIZMLARI	317
Jumanov Eshmamat Turdiyevich, Aslonov Muhammad Tosh o‘g‘li, Ergashev Mirjon Yorqin o‘g‘li	
VARYING FORMS OF LEVERAGE ANALYSIS AND ITS USAGE	324
Abduqodirova Mohinur Anvar qizi	

ROLE OF INSTITUTIONAL FRAMEWORKS IN FACILITATING INDIAN INVESTMENT IN UZBEKISTAN.....	336
Abror Kucharov, Jyoti Meshram	
TRANSPORT TIZIMINI SAMARALI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY ASOSLARI	344
Fayzullayev Javlonbek Sultonovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA RAQAMLI MARKETING FAOLIYATINI TASHKIL ETISH	357
Ergashxodjaeva Shaxnoza Jasurovna, Parpiyeva Gulhayo Ravshanbek qizi	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISH ORQALI MINTAQA IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISH OMILLARI	366
Jumanov Ruslanbek Bobojonovich	
THE ROLE OF THE PROFESSION OF GUIDE INTERPRETERS IN TODAY'S WORLD	373
Yaxshibayeva Raziya Imanali qizi	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING AN'ANAVIY SANOATDA STRATEGIK QARORLAR QABUL QILISHGA TA'SIRI.....	380
Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbayevich, Tyurahanov Shamsitdin Djamshid o'g'li	
AGROSANOAT MAJMUASINI RIVOJLANTIRISHDA IJTIMOY INFRATUZILMASINING ROLI VA O'RNI.....	389
Sultonov Sirojiddin Normurolovich	
THE ROLE OF THE STATE IN THE DEVELOPMENT OF TOURISM IN UZBEKISTAN	396
Olimova Sevara Komil kizi	
QISHLOQ XO'JALIGIDAGI XAVFLARNI BOSHQARISH STRATEGIYALARI: DEHQONCHILIKDAGI NOANIQLIKLARNI VA TAVAKKALCHILIKLARNI BARTARAF ETISH	406
Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbayevich, Mo'minov Muslimbek Mirzoxid o'g'li	
DEVELOPMENT OF THE ECONOMY OF UZBEKISTAN BASED ON INNOVATIVE ACTIVITIES.....	416
Mukumova Nargis Nuriddinovna, Nasirov Dilshod Farhadovich, Toshimov Ulugbek Hakimovich	
MOLIYAVIY SAVODXONLIK VA IJTIMOY TARMOQLARNING IQTISODIY BARQARORLIKKA TA'SIRI.....	424
Eshpulatova Muazzam Barnoyevna	
ICHKI AUDITDA TAHLILY AMALLARNI QO'LLASHNING NAZARIY ASOSLARI	435
Maxmudova Sharifa Elmurodovna	
THE ECONOMIC SIGNIFICANCE OF ADALINE NEURAL NETWORKS IN FINANCIAL DECISION-MAKING	445
Mirzayev Shoxrux Normurod o'g'li	

AHOLINING IJTIMOIIY-IQTISODIY TURMUSH DARAJASINI OSHIRISHNI XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY TAHLILI	454
Raximov Anvar Norimovich, Annayev Abbos Baxtiyor o‘g‘li	
ULGURJI SAVDO MARKETINGINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	460
Xolmamatov Diyor Haqberdiyevich	
ELEKTR ENERGIYASI UCHUN TARIF REJALARINI LOYIHALASH	470
Samiyev Shohrux Faxriddin o‘g‘li	
TA’LIM SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSION LOYIHALARNI BOSHQARISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	480
Adxamova Komilabonu Ilxom qizi, Saidov Mash’al Samadovich	
IJTIMOIIY MUHIM OZIYQ-OVQAT MAHSULOTLAR NARXLARINING KELGUSI TENDENSIYALARINI PROGNOZLASHNI EKONOMETRIK TAHLILLAR ASOSIDA MODELLASHTIRISH	489
Jumayev Olimjon Sadulloyevich	
MARKETING VA LOGISTIKA TAMOYILLARI ASOSIDA HUDUDLARDA AGROLOGISTIKA MARKAZLARINI RIVOJLANTIRISH.....	511
Xolmamatov Diyor Haqberdiyevich	
SANOAT KLASSTERLARINING SHAKLLARI VA KLASSTER SUBYEKTLARINING O‘ZARO KORPARATIV MUNOSABATLARI	522
Mamadaliyev Anazxon Ziyodillayevich	
DEHQON BOZORI SAVDOSINING XARIDORLAR TALAB-EHTIYOJINI QONDIRISHDAGI O‘RNI VA ROLI.....	527
Ivatov Irisbek	
QISHLOQ XO‘JALIGINI IXTISOSLASHISHINING INTENSIV RIVOJLANISHNI TA’MINLASHDAGI AHAMIYATI	535
Saburov Jumanazar Saliyevich	
CHAKANA SAVDO FAOLIYATIDA NEYROMARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH AHAMIYATI	542
Saminjonov Nurilloxon Abdubanno o‘g‘li	
SANOAT KLASSTERLARI – SANOAT SALOHIYATINI OSHIRISHNING STRATEGIK YO‘NALISHI SIFATIDA	549
Sobirov Azizbek Avazbekovich	
NEFT VA GAZ RESURSLARIDAN FOYDALANISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR VA ULARNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	555
Xalimov Akmaljon Axmadovich	
OLIY TA’LIM TIZIMIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	561
Xusniddinov Yorqinjon Muhiddin o‘g‘li	
APPLE KOMPANIYASINING MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH TAHLILI.....	567
Yaxyoxonov Niyozxo‘ja Baxroil o‘g‘li	

RAQAMLI MARKETINGNING ZAMONAVIY TURIZMGA TA’SIRI	575
Abduvaxidov Abdumalik Maxkamovich	
TOSHKENT SHAHRIDA BOLALAR VA O’SMIRLAR TURIZMINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARINING ASOSIY TAMOYILLAR.....	584
Islomova Dilrabo Salomovna	
O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUDUDLARIDA BILIM IQTISODIYOTINING RIVOJLANISH DARAJASINI BAHOLASH UCHUN USLUBIY YORDAMNI SHAKLLANTIRISH	591
Xolmirzayev Ulug‘bek Abdulazizovich	
OLIY TA’LIM TIZIMINI MIQDOR VA SIFAT KO’RSATKICHLARI ASOSIDA BAHOLASH MEZONLARI VA KO’RSATKICHLARI.....	602
Hakimova Mushtariybonu Hamid qizi, Bozorova Muazzam Hamid qizi,	
IHTTNING CRAM METODOLOGIYASI ASOSIDA TAHLIL (CHEXIYA TAJRIBASI).....	608
Hakimov Hakimjon Abdullo o‘g‘li	
SANOAT KORXONALARIDA TEXNIK TARTIBGA SOLISH TIZIMIDA SIFAT MENEJMENTIDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH	615
Raximov Ilyos Muydinovich	
MILLIY MODANING GLOBAL MADANIY VA RAQAMLI KOMMUNIKATSIYA UYG‘UNLIGIGA ASOSLANGAN STRATEGIK MARKETING YONDASHUVI.....	627
Tuxtaeva Oydinoy Normamatovna	
RESEARCH ON THE EFFECTS OF INTEREST RATE, INFLATION RATE AND GROSS DOMESTIC PRODUCT (GDP) ON THE LEVEL OF FOREIGN DIRECT INVESTMENT (FDI) INFLOWS (EVIDENCE FROM UZBEKISTAN)	637
Azimov Shakhzod	
OLIY TA’LIM MUASSASALARINING INNOVATSION TA’LIM LOYIHALARI ASOSIDA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH	649
Eshov Mansur Po‘latovich	
ENHANCING RETAIL PERFORMANCE: THE ROLE OF ECO-MARKETING STRATEGIES IN ACHIEVING ECONOMIC EFFECTIVENESS.....	663
Zilola Davronova G‘ulomovna	

MOLIYAVIY SAVODXONLIK VA IJTIMOIIY TARMOQLARNING IQTISODIY BARQARORLIKKA TA'SIRI

Eshpulatova Muazzam Barnoyevna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Iqtisodiy va moliyaviy xavfsizlik kafedrası tayanch doktoranti

E-mail: opencompanyuz@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu tadqiqot moliyaviy savodxonlik va ijtimoiy tarmoqlarning iqtisodiy barqarorlikka ta'sirini aniqlashga qaratilgan. Tadqiqotda inson kapitali modeli, regressiya tahlili, korrelyatsion tahlil va agent-based modeling (ABM) yondashuvlari asosida moliyaviy bilim darajasi, investitsiya xatti-harakatlari, jamg'arma qilish odati va ijtimoiy tarmoqlardagi moliyaviy axborotning iqtisodiy qaror qabul qilish jarayoniga ta'siri o'rganiladi. O'zbekistonda 234 nafar respondent ishtirokida o'tkazilgan tadqiqot natijalari respondentlarning yosh guruhlarini, moliyaviy qaror qabul qilish strategiyalari va jamg'arma qilish xatti-harakatlari o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashga qaratilgan. Tadqiqot natijalari moliyaviy savodxonlikning iqtisodiy barqarorlikni oshirishdagi muhim rolini tasdiqlaydi hamda moliyaviy ta'lim dasturlarining samaradorligini oshirish bo'yicha tavsiyalarni ilgari suradi.

Kalit so'zlar: moliyaviy savodxonlik, iqtisodiy barqarorlik, ijtimoiy tarmoqlar, inson kapitali modeli, regressiya tahlili, korrelyatsion tahlil, investitsiya, jamg'arma qilish odati, raqamli moliyaviy savodxonlik, kredit strategiyalari, foiz stavkalari, qarz boshqaruvi, moliyaviy ta'lim, makroiqtisodiy tahlil, agent-based modeling.

Аннотация

Данное исследование направлено на определение влияния финансовой грамотности и социальных сетей на экономическую стабильность. В рамках исследования были использованы модель человеческого капитала, регрессионный анализ, корреляционный анализ и подход агентного моделирования (ABM) для изучения взаимосвязи между уровнем финансовых знаний, инвестиционным поведением, привычками сбережения и влиянием финансовой информации из социальных сетей на процесс принятия экономических решений. В исследовании приняли участие 234 респондента из Узбекистана, при этом особое внимание уделено анализу связи между возрастными группами, стратегиями принятия финансовых решений и поведенческими аспектами накоплений. Результаты подтверждают важную роль финансовой грамотности в повышении экономической стабильности и предлагают рекомендации по повышению эффективности программ финансового образования.

Ключевые слова: финансовая грамотность, экономическая стабильность, социальные сети, модель человеческого капитала, регрессионный анализ, корреляционный анализ, инвестиции, привычки сбережения, цифровая финансовая грамотность, стратегии кредитования, процентные ставки,

управление долгом, финансовое образование, макроэкономический анализ, агентное моделирование.

Abstract

This study aims to determine the impact of financial literacy and social media on economic stability. It employs the human capital model, regression analysis, correlation analysis, and agent-based modeling (ABM) approaches to examine how levels of financial knowledge, investment behavior, saving habits, and financial information on social media influence economic decision-making. Based on a survey of 234 respondents in Uzbekistan, the research explores the relationships between age groups, financial decision-making strategies, and saving behavior. The findings confirm the crucial role of financial literacy in enhancing economic stability and provide recommendations for improving the effectiveness of financial education programs.

Keywords: financial literacy, economic stability, social media, human capital model, regression analysis, correlation analysis, investment, saving habits, digital financial literacy, credit strategies, interest rates, debt management, financial education, macroeconomic analysis, agent-based modeling

KIRISH

Moliyaviy savodxonlik iqtisodiy barqarorlikning asosiy omillaridan biri sifatida qaraladi. Moliyaviy savodxonlikning yuqori darajasi aholining moliyaviy qaror qabul qilish jarayonlarini optimallashtiradi, investitsiya madaniyatini rivojlantiradi va jamiyatning iqtisodiy barqarorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. (Lusardi va Mitchell (2014) ta'kidlaganidek,) Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlarning keng qo'llanilishi moliyaviy ta'lim jarayonlarini tezlashtirish va ommaga yetkazish vositasi sifatida tobora rol oshib bormoqda.

Moliyaviy savodxonlik darajasi past bo'lgan jamiyatlarda iqtisodiy muammolar, masalan, ortiqcha qarz olish, moliyaviy firibgarlik qurboniga aylanish va noto'g'ri investitsiya qarorlari qabul qilish holatlari ko'p kuzatiladi (OECD, 2021). Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, AQSh, Buyuk Britaniya va Yevropa Ittifoqi davlatlari moliyaviy savodxonlikni oshirish maqsadida ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishni kengaytirgan. Masalan, Buyuk Britaniyaning Money Advice Service tashabbusi aholiga moliyaviy qarorlar qabul qilishda yordam beruvchi interaktiv platformalarni ishga tushirdi (Sergeychik et al., 2015).

Shuningdek, Osiyo mamlakatlarida ham moliyaviy savodxonlikni oshirish strategiyalariga ijtimoiy tarmoqlar jalb etilmoqda. Singapur va Janubiy Koreya hukumatlari moliyaviy ta'limni maktab dasturlariga integratsiya qilgan holda, ijtimoiy media orqali aholiga real hayotda moliyaviy qaror qabul qilish bo'yicha maslahatlar berishni yo'lga qo'ygan (Choung, Chatterjee & Pak, 2023).

O'zbekistonda moliyaviy savodxonlik masalasi so'nggi yillarda davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va tijorat banklari aholining moliyaviy bilimlarini oshirish maqsadida bir nechta dasturlarni ishga tushirdi, biroq bu jarayonda ijtimoiy tarmoqlarning potentsiali hali to'liq ishga solinmagan. Humo va Uzcard kabi to'lov tizimlari va

Kapitalbank, Xalq banki va Agrobank kabi yirik banklar o'z ijtimoiy media platformalarida moliyaviy ta'lim berishga harakat qilishmoqda, lekin ularning samaradorligi bo'yicha yetarli tadqiqotlar mavjud emas.

Bundan tashqari, Sapere Aude Consortium (2023) tomonidan o'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, O'zbekiston yoshlari moliyaviy qarorlar qabul qilishda Instagram va TikTok kabi platformalarda tarqatilgan axborotga ishonishadi. Shuningdek, bu platformalardagi noto'g'ri ma'lumotlarning investitsiya va jamg'arish odatlariga salbiy ta'siri kuzatilgan.

Moliyaviy savodxonlik va ijtimoiy tarmoqlarning iqtisodiy barqarorlikka ta'siri global va mahalliy miqyosda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, rivojlangan davlatlar moliyaviy savodxonlikni oshirish maqsadida ijtimoiy media platformalaridan faol foydalanmoqda, bu esa iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim omil sifatida qaralmoqda.

O'zbekistonda bu yo'nalishda hali ko'p ishlar amalga oshirilishi lozim, chunki moliyaviy savodxonlik darajasi pastligi iqtisodiy xatarlarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun, ijtimoiy tarmoqlar orqali moliyaviy ta'lim dasturlarini kengaytirish, bank va moliyaviy institutlarning raqamli strategiyalarini ishlab chiqish, shuningdek, aholining raqamli moliyaviy xavfsizlikni tushunish darajasini oshirish talab etiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Moliyaviy savodxonlik jamiyatning iqtisodiy barqarorligi va samarali moliyaviy qarorlar qabul qilishga bevosita ta'sir qiladi. Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlarning bu jarayondagi o'zni oxirgi yillarda sezilarli darajada ortib bormoqda. Ushbu yo'nalishda xorijiy, MDH davlatlari va O'zbekiston olimlari tomonidan tadqiqotlar olib borilmoqda, Angela C. Lyons va Josephine Kass-Hanna (2021) "A Methodological Overview to Defining and Measuring "Digital" Financial Literacy" nomli tadqiqotida raqamli moliyaviy savodxonlik tushunchasi va uning o'lchash usullari tahlil qilingan. Mualliflar moliyaviy savodxonlik, raqamli bilimlar va moliyaviy qaror qabul qilish jarayonlari o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganib, raqamli moliyaviy ta'limni rivojlantirish bo'yicha metodologik asoslarni taklif etganlar. Tadqiqot ijtimoiy tarmoqlar orqali moliyaviy bilimlarni oshirish va ishonchli moliyaviy axborotni tarqatish muhimligini ta'kidlaydi (Lyons & Kass-Hanna, 2021).

Chapman va Pettersson (2021) "Social Media's Influence on Investment Decisions: A Qualitative Study Based on an Individual's Financial Literacy" nomli tadqiqotida ijtimoiy tarmoqlarning investitsiya qarorlariga ta'sirini o'rganib, moliyaviy savodxonlik darajasi yuqori bo'lgan shaxslar investitsiya bo'yicha axborotlarni tahliliy yondashuv orqali qabul qilishini, savodxonlik darajasi past bo'lgan shaxslar esa ijtimoiy media ta'siriga berilishini aniqlagan. Tadqiqot ijtimoiy tarmoqlardagi moliyaviy kontentning ta'siri va ishonchliligini baholash muhimligini ko'rsatadi (Chapman & Pettersson, 2021).

OECD (2021) "Financial Literacy Levels in the Commonwealth of Independent States" nomli hisobotida Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlaridagi moliyaviy savodxonlik darajasi va uning iqtisodiy barqarorlikka ta'siri tahlil qilingan. Tadqiqotda aholining moliyaviy bilimlari bo'yicha indikatorlar ishlab chiqilgan bo'lib,

ularning aksariyati uzoq muddatli moliyaviy rejalashtirish va qarz boshqarish bo'yicha bilim yetishmovchiligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, hisobotda ijtimoiy tarmoqlarning moliyaviy ta'lim vositasi sifatida rivojlantirilishi zarurligi ta'kidlangan (OECD, 2021).

S. I. Sergeychik, M. S. Sergeychik va A. A. Maksimova (2015) "Mirovoy opyt realizatsii proektov v oblasti finansovogo obrazovaniya" nomli tadqiqotida dunyo miqyosida moliyaviy ta'lim bo'yicha amalga oshirilgan loyihalar tahlil qilingan. Mualliflar AQSh, Yevropa va Osiyo davlatlarida moliyaviy savodxonlik dasturlarining samaradorligini baholab, MDH davlatlarida ushbu tajribani joriy etishning istiqbolli yo'nalishlarini ko'rsatib o'tganlar. Tadqiqot moliyaviy ta'limni rivojlantirish uchun ijtimoiy tarmoqlardan kengroq foydalanish zarurligini ta'kidlaydi (Sergeychik va boshq., 2015).

Akmaral Ospanovna Demeubayeva va Gulnara Zhaksikeldievna Akhmetova (2022) "Financial Literacy in the Republic of Kazakhstan: Modern Trends and Initiatives" nomli tadqiqotida Qozog'iston aholisi orasida moliyaviy savodxonlikning rivojlanishi va moliyaviy barqarorlikka ta'siri tahlil qilingan. Mualliflar bank xizmatlaridan foydalanish darajasining oshishi va aholining moliyaviy bilimlarini rivojlantirish orqali iqtisodiy islohotlarning natijalari barqaror bo'lishini ta'kidlaydi. Tadqiqotda ijtimoiy tarmoqlar orqali moliyaviy bilimlarni oshirish imkoniyatlari ko'rib chiqilgan (Demeubayeva & Akhmetova, 2022).

Nodir G'iyosaliyevich Xidirov va Zarina Nosirovna Olqarova (2024) "Aholi moliyaviy savodxonligi darajasining ijtimoiy hayotga ta'siri" nomli tadqiqotida moliyaviy savodxonlik va iqtisodiy barqarorlik o'rtasidagi bog'liqlik tahlil qilingan. Mualliflar aholining moliyaviy qaror qabul qilishdagi xatti-harakatlarini tahlil qilib, moliyaviy bilimning iqtisodiy islohotlarga moslashuv jarayonlarida muhim rol o'ynashini ta'kidlaganlar. Tadqiqot ijtimoiy tarmoqlar orqali moliyaviy ta'limni rivojlantirish bo'yicha tavsiyalarni o'z ichiga oladi (Xidirov & Olqarova, 2024).

Mahmudova Xushnoza Ravshanbekovna (2021) "Aholining moliyaviy savodxonligini oshirishda OAVning o'rni: dolzarbligi va ahamiyati" nomli tadqiqotida OAV va ijtimoiy tarmoqlarning moliyaviy ta'lim vositasi sifatida samaradorligini tahlil qilgan. Muallif ommaviy axborot vositalari orqali aholining moliyaviy savodxonligini oshirish yo'llarini ko'rib chiqib, ijtimoiy tarmoqlarning ushbu jarayondagi o'rni va natijalarini baholagan. Tadqiqotda moliyaviy ta'limni rivojlantirish bo'yicha milliy strategiyalar taklif qilingan (Mahmudova, 2021).

Xorijiy adabiyotlar moliyaviy ta'limning innovatsion metodlari va ijtimoiy tarmoqlarning o'rganilishi bo'yicha keng qamrovli tadqiqotlarni o'z ichiga olgan bo'lsa, MDH va O'zbekiston olimlari asosan milliy darajadagi muammolar va ularning yechimlariga yo'naltirilgan tadqiqotlar olib borgan. Ushbu adabiyotlar asosida ijtimoiy tarmoqlarning moliyaviy ta'lim vositasi sifatida o'rganilishi dolzarb masala ekanligi tasdiqlanadi.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqot moliyaviy savodxonlik va ijtimoiy tarmoqlarning iqtisodiy barqarorlikka ta'sirini tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, iqtisodiy modellashtirish metodologiyasi asosida olib boriladi. Tadqiqotda inson kapitali modeli, dinamik

stoxastik umumiy muvozanat (DSUM) modeli, regressiya tahlili hamda agent-based modeling (ABM) yondashuvlari qo'llanildi. Ushbu metodlar moliyaviy bilim darajasi, investitsiya odatlari, jamg'arma strategiyalari va ijtimoiy tarmoqlardagi moliyaviy axborotning iqtisodiy qaror qabul qilish jarayoniga ta'sirini aniqlash imkonini beradi.

Tadqiqot kvantitativ va sifat tahlili asosida olib boriladi. Kvantitativ yondashuv orqali respondentlarning moliyaviy savodxonlik darajasi va iqtisodiy barqarorlik o'rtasidagi bog'liqlik regressiya tahlili yordamida aniqlanadi. Sifat tahlili esa respondentlarning moliyaviy qarorlarini qabul qilish motivatsiyasini chuqur tushunish uchun foydalaniladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Inson kapitali modeli moliyaviy savodxonlikning iqtisodiy barqarorlikka ta'sirini tushuntirishda eng samarali nazariy yondashuvlardan biridir. Ushbu model ta'lim, bilim va malaka iqtisodiy rivojlanishning ajralmas qismi ekanligini ko'rsatadi. Moliyaviy savodxonlik esa inson kapitalining muhim tarkibiy elementi bo'lib, shaxslarning iqtisodiy qaror qabul qilish qobiliyatini oshiradi, ularning jamg'arma va investitsiya odatlarini shakllantiradi. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar orqali moliyaviy ta'lim olish imkoniyatlari kengayib borayotgan hozirgi davrda, inson kapitali modeli bu jarayonning iqtisodiy ta'sirini aniq baholash imkonini beradi. Raqamli texnologiyalar yordamida moliyaviy bilimlarga erishish tezlashmoqda va bu aholining moliyaviy qarorlar sifatini oshirish orqali iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, inson kapitali modeli moliyaviy savodxonlikning iqtisodiyotga uzoq muddatli ta'sirini baholash imkonini beradi. Moliyaviy bilimlarga ega bo'lgan shaxslar kreditlardan oqilona foydalanish, ortiqcha qarz yukidan qochish va jamg'arma strategiyalarini ishlab chiqish orqali iqtisodiy xatarlarni kamaytiradi. Bu esa ularning moliyaviy mustaqillik darajasini oshirib, mamlakat iqtisodiy barqarorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'zbekistonda va boshqa rivojlanayotgan mamlakatlarda inson kapitali modelidan foydalanish ayniqsa dolzarb, chunki bu metod ijtimoiy tarmoqlarning moliyaviy bilimlarni oshirishdagi rolini tahlil qilish va ushbu jarayonni rivojlantirish bo'yicha strategik tavsiyalar ishlab chiqishga imkon beradi.

Inson kapitali modeli iqtisodiyotda bilim, ko'nikma va malaka iqtisodiy barqarorlik va farovonlikni oshirishda muhim omil ekanligini ta'kidlaydi. Ushbu model Gary S. Becker (1964) tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, ta'lim, kasbiy malaka va sog'liqni saqlash kabi omillar inson kapitalini oshirish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirishini ko'rsatadi.

Moliyaviy savodxonlik ham inson kapitalining muhim tarkibiy qismi bo'lib, bu shaxslarning moliyaviy qaror qabul qilish qobiliyatiga, sarmoyaviy xatti-harakatlariga va iqtisodiy barqarorligiga bevosita ta'sir qiladi.

Inson kapitali modeli quyidagi asosiy qadamlar orqali tahlil qilinadi:

- Moliyaviy ta'lim – Moliyaviy bilim va ko'nikmalar inson kapitalining bir qismi sifatida baholanadi.
- Investitsiya darajasi – Odamlar moliyaviy bilimlarini oshirish uchun qancha mablag' yoki vaqt sarflashga tayyor?

• Iqtisodiy natijalar – Moliyaviy savodxonlik darajasi ortganda jamg'arma darajasi, kreditdan foydalanish va investitsiyalar sifatining oshishi.

Bu model odamlarning moliyaviy bilimlarini oshirish orqali iqtisodiy barqarorlik va farovonlikni ta'minlash imkoniyatlarini tahlil qilish uchun ishlatiladi. Ushbu model yordamida ijtimoiy tarmoqlarning moliyaviy savodxonlikka va natijada iqtisodiy barqarorlikka ta'siri 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Ijtimoiy tarmoqlarning moliyaviy savodxonlikka va iqtisodiy barqarorlikka ta'siri¹

Inson kapitali modellari	Moliyaviy savodxonlik va ijtimoiy tarmoqlarga tatbiq etilishi
1. Sarmoya (Investment in Capital)	Ijtimoiy tarmoqlarda moliyaviy ta'lim resurslari, onlayn kurslar va bloglar
2. Ta'lim va bilim olish (Education & Learning)	Ijtimoiy tarmoqlardan moliyaviy ma'lumot olish: YouTube, TikTok, Instagram, Twitter
3. Moliyaviy qaror qabul qilish (Decision Making Process)	Olingan bilimlar asosida kredit, jamg'arma va investitsiya bo'yicha qarorlar
4. Iqtisodiy natijalar (Economic Outcomes)	Yaxshi moliyaviy qaror qabul qilish natijasida jamg'arma, aktivlar va barqarorlik ortadi

Inson kapitali modeli moliyaviy savodxonlikning iqtisodiy barqarorlikka ta'sirini baholash uchun regressiya tahlili, korrelyatsiya tahlili va statistik modellashtirish usullaridan foydalanadi.

Tadqiqotda moliyaviy savodxonlik va ijtimoiy tarmoqlarning iqtisodiy barqarorlikka ta'sirini chuqur o'rganish maqsadida turli statistik va modellashtirish metodlaridan foydalaniladi. Ushbu metodlar iqtisodiy xatti-harakatlar va moliyaviy qarorlarning tahlilini ilmiy asosda amalga oshirish imkonini beradi.

Regression tahlil moliyaviy savodxonlikning iqtisodiy barqarorlikka qanday ta'sir ko'rsatishini aniqlash uchun eng samarali usullardan biridir. Ushbu metod orqali moliyaviy bilim darajasi, daromad darajasi va investitsiya strategiyalari o'rtasidagi bog'liqlik baholanadi. Regression model yordamida mustaqil o'zgaruvchilarning iqtisodiy barqarorlik kabi natijalarga ta'siri miqdoriy baholanadi. Bu tahlil orqali moliyaviy bilim darajasi oshgan sari respondentlarning iqtisodiy qiyinchiliklarga bardoshlilik oshishi yoki oshmasligi aniqlanadi.

Korrelyatsion tahlil moliyaviy bilim, jamg'arma qilish odati va investitsiya qarorlarining o'zaro bog'liqligini o'rganish imkonini beradi. Ushbu usul respondentlarning moliyaviy qarorlarini qanday omillar shakllantirishini tahlil qilishga yordam beradi. Masalan, jamg'arma qilish odati yuqori bo'lgan respondentlar investitsiya imkoniyatlarini qanday baholaydi va ularning moliyaviy savodxonlik darajasi qanday ahamiyat kasb etadi? Korrelyatsion tahlil bu bog'liqlikni miqdoriy baholab, moliyaviy qarorlarning samaradorligini oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishga imkon yaratadi.

¹ Muallif ishlanmasi

Moliyaviy bilim darajasining o'zgarishi iqtisodiy barqarorlikka qanday ta'sir qilishini baholash uchun vaqt qatorlari tahlili qo'llaniladi. Bu usul yordamida uzoq muddatli iqtisodiy tendensiyalar o'rganilib, moliyaviy savodxonlikning iqtisodiy farovonlikka ta'siri prognoz qilinadi. Masalan, aholining moliyaviy savodxonligi oshgan sari jamg'arma va investitsiya hajmining ortishi kuzatiladimi yoki yo'q? Ushbu tahlil iqtisodiy siyosat va moliyaviy ta'lim dasturlarining uzoq muddatli ta'sirini baholashda muhim ahamiyatga ega.

Agent-based modeling (ABM) ijtimoiy tarmoqlardagi moliyaviy maslahatlarning respondentlarning iqtisodiy xatti-harakatlariga ta'sirini modellashtirish uchun qo'llaniladi. Ushbu usul moliyaviy qaror qabul qilish jarayonida ijtimoiy tarmoqlarning ahamiyatini o'rganishga imkon beradi. Modelda har bir respondent agent sifatida qaralib, ularning ijtimoiy tarmoqlardan olgan moliyaviy axborot asosida qaror qabul qilish jarayoni simulyatsiya qilinadi. Natijada, ijtimoiy tarmoqlardagi ma'lumotlarning to'g'riligi va ularning respondentlarning investitsiya yoki jamg'arma qilish qarorlariga ta'siri baholanadi.

Ushbu metodlar moliyaviy savodxonlik va iqtisodiy barqarorlik o'rtasidagi munosabatni har tomonlama tahlil qilishga yordam beradi. Regression tahlil va korrelyatsion tahlil orqali aniq statistik bog'liqliklar aniqlansa, vaqt qatorlari tahlili orqali vaqt o'tishi bilan yuz beradigan o'zgarishlar baholanadi. Agent-based modeling esa respondentlarning iqtisodiy qarorlarini shakllantiruvchi omillarni chuqur tushunishga imkon beradi.

Ushbu metodologiyalar asosida olib boriladigan tahlillar natijalariga tayangan holda, moliyaviy savodxonlikni oshirishga qaratilgan strategiyalar ishlab chiqish mumkin. Shu orqali aholining iqtisodiy barqarorligini oshirish va moliyaviy mustaqillik darajasini kuchaytirish mumkin bo'ladi.

Gary Becker (1964) tomonidan ishlab chiqilgan klassik inson kapitali modeli quyidagi asosiy formulaga asoslanadi:

$$Y=f(HC,X)$$

Bu yerda:

- Y – iqtisodiy natija (masalan, daromad, iqtisodiy barqarorlik, jamg'arma darajasi)
- HC – inson kapitali (moliyaviy savodxonlik, ta'lim, malaka)
- X – boshqa nazorat o'zgaruvchilari (kredit olish, ish tajribasi, bank xizmatlaridan foydalanish, ijtimoiy tarmoqlardan foydalangan holda moliyaviy ta'lim)

Empirik tadqiqot uchun inson kapitali modelini moliyaviy savodxonlik va iqtisodiy barqarorlik o'rtasidagi bog'liqlikni baholash uchun quyidagi oddiy regressiya modeli qo'llanilishi mumkin:

$$Y_i = \beta_0 + \beta_1 HC_i + \beta_1 X_i + \varepsilon_i$$

Bu yerda:


- Y_i – respondentning iqtisodiy barqarorligi (daromad, jamg'arma, kredit yuklamasi)
- HC_i – moliyaviy savodxonlik darajasi (moliyaviy test natijalari yoki so'rovnoma natijalari asosida)

- X_i – nazorat o‘zgaruvchilari (yosh, ta’lim, ish tajribasi, oilaviy daromad)
- ε_i – noaniqlik omillari.

TAHLIL VA NATIJALAR

Moliyaviy savodxonlik va iqtisodiy barqarorlik o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash maqsadida O‘zbekistonda 234 nafar respondent orasida o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalari tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari respondentlarning yoshi, moliyaviy bilim darajasi, jamg‘arma qilish odati, raqamli moliyaviy savodxonlik darajasi hamda moliyaviy savodxonlik va daromad o‘rtasidagi bog‘liqlik kabi omillar asosida baholandi. Tadqiqotda inson kapitali modeli asosida moliyaviy bilim, investitsiya xatti-harakati va iqtisodiy barqarorlik o‘rtasidagi bog‘liqlik tahlil qilinadi.

Model moliyaviy bilimlarning iqtisodiy barqarorlikka ta’sirini baholash uchun foydalaniladi.



1-rasm. Respondentlarning yosh bo‘yicha tasnifi¹

Respondentlarning yosh taqsimoti ularning moliyaviy xatti-harakatlari va qaror qabul qilish strategiyalariga ta’sir ko‘rsatishi aniqlangan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, 18-25 yoshdagi respondent-larning aksariyati (45%) moliyaviy bilim darajasi past bo‘lishiga qaramay, ijtimoiy tarmoqlardagi moliyaviy maslahatlarga qiziqish bildiradi. Ushbu yosh guruhi moliyaviy mustaqillik yo‘liga endigina kirayotgan bo‘lib, ular asosan jamg‘arma va investitsiyaga oid qarorlarni ota-onalarining yoki yaqinlarining maslahatlari asosida qabul qiladilar.

26-35 yosh oralig‘idagi respondentlar (30%) esa moliyaviy qarorlarni mustaqil qabul qilishga moyildir, ularning aksariyati raqamli moliyaviy xizmatlardan foydalanib, investitsiya imkoniyatlarini o‘rganishga harakat qiladilar. Bu yosh guruhi moliyaviy rejalashtirishni faol amalga oshirib, kredit olish va jamg‘arma qilish borasida aniq strategiyalarga ega.


36 yoshdan katta respondentlar (25%) esa jamg‘arma va investitsiya bo‘yicha barqaror strategiyalarga ega bo‘lib, moliyaviy xavfsizlikni asosiy maqsad deb

¹ Muallif ishlanmasi

bilishadi. Ushbu guruh bank omonatlaridan keng foydalanadi va riskli investitsiya turlaridan chetda qolishni ma'qul ko'radi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, 60% respondent moliyaviy tushunchalarni yaxshi biladi, 40% esa yetarlicha bilimga ega emas yoki noto'g'ri tasavvurlarga ega. Aholining moliyaviy savodxonligini oshirish bo'yicha maqsadli ta'lim dasturlarining yo'qligi moliyaviy barqarorlikka salbiy ta'sir qilishi mumkin.

Moliyaviy bilim darajasi yuqori bo'lgan respondentlar kredit shartlarini aniq tushunib, ularning foiz stavkalari, to'lov shartlari va xavf omillarini yaxshi baholaydi. Biroq, bilim darajasi past bo'lgan respondentlarning aksariyati (70%) kredit olish jarayonida asosiy shartlarni tushunmaydi, natijada haddan tashqari kredit yuklamasi paydo bo'lishi mumkin.



2-rasm. Respondentlarning Oylik daromadlarni jamg'arish holati¹

Jamg'arma qilish odati respondentlarning moliyaviy rejalashtirish madaniyati bilan bog'liq. Tahlil natijalariga ko'ra, faqat 22% respondent muntazam ravishda jamg'arma qiladi, 48% esa ba'zan jamg'arma qiladi, 30% esa umuman jamg'armaydi. Jamg'arma qilish odati yosh va daromad darajasi bilan uzviy bog'liq bo'lib, 18-25 yoshdagi respondentlarning aksariyati jamg'arma qilishni muhim deb hisoblamaydi.

Muntazam jamg'arma qilayotgan respondentlar odatda moliyaviy rejalashtirish va kutilmagan xarajatlarga tayyorgarlik borasida yuqori darajadagi bilim va mas'uliyatga ega. Jamg'arma qilish odati mustahkam bo'lgan respondentlarning 90% moliyaviy qiyinchiliklarga tayyor ekanligini bildirgan, bu esa moliyaviy mustaqillik darajasini oshirishga xizmat qiladi.


Raqamli moliyaviy xizmatlardan foydalanish bo'yicha natijalar shuni ko'rsatadiki, respondentlarning 73% mobil banking va onlayn to'lov tizimlaridan

¹ Muallif ishlanmasi

foydalanadi, bu esa raqamli transformatsiyaning keng tarqalganligini anglatadi. Raqamli xizmatlardan foydalanish darajasi yosh guruhlar orasida farqlanadi:

- 18-25 yoshdagilarning 85% raqamli banking xizmatlaridan faol foydalanadi.
- 26-35 yoshdagi respondentlarning 70% raqamli to'lov tizimlarini kundalik hayotda qo'llaydi.
- 36 yoshdan katta respondentlarning atigi 55% raqamli xizmatlardan foydalanadi, qolganlari esa an'anaviy moliyaviy vositalarni afzal ko'radi.

Raqamli moliyaviy savodxonlik yuqori bo'lgan respondentlar investitsiya qilishda ham ancha faol bo'lib, ular aksiyalar, obligatsiyalar va kriptovalyutalarga qiziqish bildiradi. Biroq, noto'g'ri investitsiya qarorlarini qabul qilish xavfi yuqori bo'lganligi sababli, ishonchli manbalardan foydalanish muhim sanaladi.



3-rasm. Respondentlarning raqamli moliyaviy xizmatlardan foydalanish holati¹

Tahlil natijalari moliyaviy savodxonlik darajasi va daromad darajasi o'rtasidagi bog'liqlikni tasdiqlaydi. Moliyaviy savodxonligi yuqori bo'lgan respondentlar o'rtacha yuqoriroq daromadga ega bo'lib, ular moliyaviy mustaqillikni saqlash imkoniyatiga ega. Bunday respondentlar o'z jamg'armalarini diversifikatsiya qilishga intilib, barqaror daromad manbalarini yaratishga harakat qiladi.

Aksincha, moliyaviy savodxonligi past bo'lgan respondentlar ko'proq qarzdorlikka duch keladi va investitsiya imkoniyatlaridan kamroq foydalanadi. Bu esa ularning iqtisodiy barqarorligini zaiflashtiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda moliyaviy savodxonlik darajasi o'rtacha bo'lib, jamg'arma qilish odatlari yetarli darajada shakllanmagan, raqamli moliyaviy xizmatlardan foydalanish esa keng tarqalgan. Respondentlarning moliyaviy bilim darajasi ularning iqtisodiy qarorlariga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Moliyaviy bilim yuqori bo'lgan shaxslar yuqori daromadga ega bo'lish bilan birga, jamg'arma qilish va investitsiyalarga ongli yondashadi. Biroq, moliyaviy bilim

¹ Muallif ishlanmasi

yetishmovchiligi notoʻgʻri kredit qarorlari, yuqori qarzdorlik va investitsiya xatoliklariga olib kelishi mumkin.

Jamgʻarma qilish odatlari respondentlarning iqtisodiy mustaqilligiga taʼsir qiluvchi muhim omillardan biri boʻlib, 22% respondent muntazam jamgʻarma qiladi, 30% esa umuman jamgʻarma qilmaydi. Bu iqtisodiy beqarorlik xavfini oshiradi va kutilmagan xarajatlarga tayyor emaslikni anglatadi. Shu sababli, aholining jamgʻarma qilish madaniyatini shakllantirish boʻyicha aniq strategiyalar ishlab chiqish lozim.

Raqamli moliyaviy savodxonlik darajasi yuqori boʻlib, respondentlarning 73% mobil banking va onlayn toʻlov tizimlaridan foydalanadi. Biroq, raqamli investitsiyalar va moliyaviy firibgarlikdan himoyalaniish boʻyicha bilim yetishmovchiligi mavjud. Shu bois, aholiga raqamli moliyaviy xizmatlardan xavfsiz foydalanish boʻyicha qoʻshimcha oʻquv dasturlarini tashkil etish lozim.

FOYDALANILGA ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60 son “2022–2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida”gi Farmoni;

2. Rukavina M. Navigating Food Safety: Insights, Innovations, and Consumer Trends in Changing Food Patterns / M. Rukavina. – Journal of Consumer Protection and Food Safety, 2024. – DOI: 10.1007/s00003-024-01501-z.

3. Jenson I. Turning Research into Innovation: A Systems Approach to Innovation in Food Safety / I. Jenson. – Food Protection Trends, 2019. – September/October.

4. Kabisch S., Langkabel M., Sicca L. Microbiological Status of Vegan Meat Alternatives / S. Kabisch, M. Langkabel, L. Sicca. – Journal of Consumer Protection and Food Safety, 2024. – DOI: 10.1007/s00003-024-01501-z.

5. Sicca L. Organic Food Markets in Brazil, the U.S., and Europe / L. Sicca. – Journal of Consumer Protection and Food Safety, 2024. – DOI: 10.1007/s00003-024-01501-z.

6. Langkabel M., Kabisch S. Comparison of Scalding Techniques in Broiler Abattoirs and Their Effect on Bacterial Contamination / M. Langkabel, S. Kabisch. – Journal of Consumer Protection and Food Safety, 2024. – DOI: 10.1007/s00003-024-01501-z.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhih: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, mart, 3-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: 9710. ГОСТ 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlaro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**